
“Har bir oila – tadbirkor” dasturi: Daromad – tomorqadan

O‘zbekiston tumanidagi Nursux qishlog‘ida yashovchi 73 yoshli Rustam Mamadaliev mirishkor tomorqachi sifatida mashhur.

Qariyb 35 yil maktabda ximiya-biologiya fani o‘qituvchisi sifatida ishlagan mehnat faxriysining xonadoni ajoyib gulzor va bog‘. Yuqori ko‘cha, 140-xonadonning 5 nafar a‘zolari 3 sotixda issiqxona tashkil etishgan. 2017 yilning o‘zida ushbu xonadon egalari limonchilikdan 8,5 million, xona gullari etishtirib sotishdan 3,5, pista ko‘chatidan 3, chorvachilikdan 5, tomorqadan hammasi bo‘lib 25 million so‘m daromadga ega bo‘lishdi.

Bu xonadonda palmadan tortib eng noyob gullargacha, limon, apelsin, mandarin, greyfurt, lavr olchasi, kivi, goji, funduk yong‘og‘i, zaytun singari mevali va manzarali daraxtlar parvarishlanadi. Oila a‘zolari keyingi 3 yilda pista ko‘chatlari yetishtirib sotishni ham yo‘lga qo‘ydi. Hozirgi kunda ushbu oila a‘zolari dehqon xo‘jaligi tashkil etib, 4 gektar yerda pista ko‘chatlari parvarishlashyapti. Bu yil 4 ming tup noyob gul ko‘chatlari qo‘shni Tojikiston va Qirg‘izistonga eksport qilinishi rejalashtirilmoqda.

– Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi juda katta samara beradi, – deydi seleksioner olim Rustam Mamadaliev. – Hozirgacha ukalarim, qo‘ni-qo‘shni va mahalladagi ko‘plab oilalarga tomorqadan samarali foydalanishni o‘rgatdim. Agar xohlovchilar bo‘lsa turli gul, mevali va manzarali daraxtlar, pista ko‘chatlarini yetkazib berish, payvandlash va parvarishlash, agrotexnik tadbirlar o‘tkazish borasida ko‘maklashishim mumkin.

B.MADIYOROV.

2018-07-03 22:39:41